

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**ABDUVAHOBOV DOSTON ABDUMANNOP O'G'LI**

**BOSHLANG'ICH PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI  
MATEMATIKA TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING KASBIY  
KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRUVCHI  
METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (matematika)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiya avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor  
of philosophy (PhD) on pedagogical sciences**

**Abduvahobov Doston Abdumannop o'g'li**

Boshlang'ich professional ta'lim muassasalari matematika ta'limida  
o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantiruvchi metodik tizimini  
takomillashtirish .....3

**Абдувахобов Достон Абдуманноп угли**

Совершенствование методической системы формирования  
профессиональных компетенций учеников в математическом образовании  
начальных профессиональных образовательных учреждений .....23

**Abduvahobov Doston Abdumannop ugli**

Improving the methodical system of forming the professional competencies of  
students in mathematics education of primary professional educational  
institutions.....45

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

**Список опубликованных работ**

**List of publication works.....49**

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.01.2020.Ped.26.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**ABDUVAHOBOV DOSTON ABDUMANNOP O'G'LI**

**BOSHLANG'ICH PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI  
MATEMATIKA TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING KASBIY  
KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRUVCHI  
METODIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (matematika)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.Phd/Ped4448 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.tdpu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Akmalov Abbas Akramovich**  
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponenlar:**

**Saidova Mohinur Jonpo'latovna**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Ergashev Jamshid Baxtiyorovich**  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.2020.Ped.26.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-79-11; faks (99871) 276-80-86; e-mail: tdpu\_kengash@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (99871) 276-79-11; faks (99871) 276-80-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025 yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_-raqamli reyestr bayonnomasi).

**Z.N.Mamarajabova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
p.f.d., professor

**R.G.Isyanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi,  
p.f.n., dotsent

**M.E.Mamarajabov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar  
raisi, p.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahon ta'lim muassasalarida bo'lajak matematika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish maqsadida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish amaliyoti keng joriy etilmoqda. Bu jarayon ta'lim sifatini oshirish, pedagogik faoliyatning innovatsion shakl va usullarini rivojlantirish, shuningdek, o'quvchilarni mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish hamda zamonaviy raqobat muhitida raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarining "Cedefop" kasbiy ta'limni rivojlantirish markazi hamda "Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action for the Sustainable Development" deklaratsiyasida sifatli ta'lim muhitini shakllantirish, bilim olishni uzluksiz davom ettirish imkoniyatlarini yaratish va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion loyihalarni amaliyotga joriy etish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida yetuk kadrlarga bo'lgan ehtiyojning doimiy ortib borishi mehnat bozoriga kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarga ega bo'lgan, ularni muntazam ravishda rivojlantirib boradigan mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo'yimoqda. Xususan, "The World Economic Forum" xalqaro tashkilotining kelajakdagi kasblariga doir 2020-yilgi hisobotida 2025-yilga kelib mutaxassislardan o'nga yaqin asosiy ko'nikma va kompetensiyalarga ega bo'lish talabi yuzaga kelishi bashorat qilingan. Bu esa, o'z navbatida rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimini modernizatsiyalash, o'quv dasturlari va darsliklarini zamon talablariga mos ravishda ishlab chiqish bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borishga undamoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda uzluksiz ta'lim tizimini keng qamrovli isloh qilish va ta'lim jarayonlarini yangilash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonning natijasi sifatida uzluksiz ta'limning yakuni mehnat bozoridagi ish o'rinlari bilan bevosita bog'lanadi. Binobarin, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'lim tizimida tayyorlanayotgan kadrlarning mehnat bozoridagi o'rniga e'tibor qaratar ekan " ...yoshlarni kasblarga qiziqtirish muhiti shakllanmagan. Maktab bitiruvchilarining 50 foizi mehnat bozoriga hech qanday kasbga ega bo'lmasdan kirib kelmoqda"<sup>1</sup>, – deb ta'kidlagan. Bunga chora-tadbir sifatida o'quvchilarni maktabda 64 turdagi ishchi kasblarga o'rgatish jarayonlari amalga oshirilishi nazarda tutiladi va ushbu yondashuv umumta'lim fanlarini kasbga yo'naltirib o'qitishning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-son "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Maktablarda xorijiy tillar va kasb o'rgatish tizimini rivojlantirish masalalari bo'yicha kengaytirilgan yig'ilishdagi nutq. 20.01.2023: <https://president.uz/uz/lists/view/5830>

to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60–son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Matematikani fanlararo aloqadorlik asosida o'qitishga doir B.S.Abdullayeva, M.U.Barotov, A.Musurmanov, A.A.Salomov; matematikani kasbga yo'naltirib o'qitish bo'yicha G.R.Alimatova, N.O.Eshpo'latov, O.G.Gaimnazarov, Sh.A.Saipnazarov, A.K.Suvonqulov, T.R.To'laganov; matematikani o'qitishning amaliy yo'nalganligiga oid M.Barakayev, N.R.Gaybullayev, M.Rayemov, M.Tojiyev; kompetensiyalar va ularni shakllantirishga qaratilgan yondashuvlarga doir M.Barakayev, M.T.Axmedova, Sh.T.Butayev, J.A.Mardonqulov, N.A.Muslimov, Y.R.Najmiddinova, N.Sh.Ruzikulova, J.E.Usarovlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) olimlari tomonidan fanlararo aloqadorlikka oid N.M. Burtseva, M.I.Maxmutov, G.I.Sarantsev, Y.Y.Miganova; kasbga yo'naltirib o'qitishga doir S.Y.Batishev, V.I.Blinov, A.Novikov, V.Y.Smolskaya, O.N.Utkina; matematikani kasbga yo'naltirib o'qitishga doir A.Detkova, O.N.Fedorova, I.Y.Garanina, O.G.Knyazeva, K.N.Lungu, E.M.Musina, A.L.Nikitina; matematikani o'qitishning amaliy yo'nalganligi va kasbiy mazmundagi masalalarga doir T.I.Fedotova, Y.M.Kolyagin, T.A.Kuzmina, R.M.Zaykin; kompetensiyalar va ularni shakllantirishga qaratilgan yondashuvlarga oid V.Baydenko, M.V.Kondurar, A.V.Xutorskiy, S.I.Zmeyov, M.L.Zuyeva ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan.

Xorijiy mamlakatlardan matematikani fanlararo aloqadorlik asosida o'qitish va matematika ta'limida kompetensiyalarni shakllantirishga doir D.Dalby, A.Noyes, L.Martignon, Ch.Rechsteiner, R.Capone, G.Carolin, U.Volker; kasb maktablarida matematikani o'qitishga doir J.Thiering, S.Hatherly, J.McLeod, T.Wedge; kompetensiyalarni shakllantirishga doir Dj.Raven, L.M.Spenser, G.Le Boterf, M.Rieckmann, N.Lausselet, P.Vare, V.Cohen-Scali kabi olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Pedagogik yo'nalishlar va

mutaxassisliklar bo'yicha ilg'or pedagogika texnologiyalarini joriy etish, pedagog kadrlarni sifatli tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, elektron-ta'lim resurslarini yaratish va takomillashtirish, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogika, multimedia va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish" nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan (2020-2024 yy).

**Tadqiqot maqsadi** boshlang'ich professional ta'lim muassasalari matematika ta'limida o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantiruvchi metodik tizimini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

kasb-hunar maktablari o'quvchilari egallashi lozim bo'lgan kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning metodik xususiyatlarini aniqlash;

matematika ta'limi jarayonida kasbiy kompetensiyalarini shakllantiruvchi o'quv elementlarini takomillashtirish;

matematika darslarida nazariy ma'lumotlarni, qonun va qoidalarni o'rganishda, bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilishda asosiy o'rinda turuvchi masalalarning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash va metodik xususiyatlarini ishlab chiqish;

ishlab chiqilgan metodik tizimning samaradorligini tekshirish uchun tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, o'tkazish hamda o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasining tahlillariga ko'ra o'quv-metodik ta'minotni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida kasb-hunar maktablari matematika ta'limida o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantiruvchi metodik tizimini takomillashtirish jarayoni belgilanib, Sergeli tumani kasb-hunar maktabi, Jizzax shahar kasb-hunar maktabi va Namangan shahar 2-son kasb-hunar maktabidan jami 532 nafar o'quvchilar jalb qilingan.

**Tadqiqotning predmetini** kasb-hunar maktablari o'quvchilarining matematika ta'limi jarayonida kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan metodlar, shakllar, usullar va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishida mavzuga oid ilmiy manbalar, psixologik, pedagogik, didaktik va metodik adabiyotlar, DTS, o'quv-me'yoriy hujjatlar, didaktik materiallarni o'rganish va tahlil etish, suhbat, kuzatish, test, tahlil qilish, umumlashtirish, pedagogik tajriba-sinov, tadqiqot natijalarini matematik-statistik tahlil etish metodlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

kasb-hunar maktablarida matematikani o'qitish jarayonida o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning metodik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilgan holda kasbiga yo'naltirib o'qitishda fanlararo aloqadorlikka asoslanish va dars jarayonlarini tashkil etishni takomillashtirish bosqichlari aniqlangan;

matematika darslarini tashkil etishda o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantiruvchi o'quv elementlari (maqsad, mazmun, metod, shakl va vositalar)ning xususiyatlariga mos ravishda takomillashtirilgan;

matematika darslarida nazariy ma'lumotlarni, qonun va qoidalarni o'rganishda, bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilishda asosiy o'rinda turuvchi masalalarning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatiga e'tibor qaratilib, kasbiy mazmunli masalalar va kasbiy kompetensiyaviy masalalar tushunchalari alohida ajratilgan va metodik xususiyatlari ishlab chiqilgan.

takomillashtirilgan metodik tizimga asoslangan dars jarayonlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning matematik va kasbiy kompetensiyalarini shakllanganlik darajalari qiyosiy, tahliliy va ijodiy mezonlar asosida natijalari aniqlashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Tadqiqot natijasida kasb-hunar maktablarida matematika fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi ta'lim shakllari, maqsadi, mazmuni, uni amalga oshirish usullari, metod va vositalari nazariy yondashuvlar bilan boyitildi. Shu bilan bir qatorda, bo'lajak kasb egalarining kasbiy kompetensiyalarini matematika ta'limi jarayonida shakllantirishga doir metodik tavsiyalar va ishlanmalarga ega bo'ldi, hamda ulardan matematika darslarida samarali foydalanish imkoniyati vujudga keldi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** nazariy ma'lumotlarning Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatiga kiritilgan xorijiy va mahalliy ilmiy jurnallarda chop etilgan, xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda e'lon qilingan materiallar va rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etishda tajriba-sinov ishlarini amalga oshirilganligi hamda uning natijalari matematik-statistik usullar vositasida asoslangan holda samaradorligi aniqlanganligi, buning natijasida xulosalar ishlab chiqilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kasb-hunar maktablarida matematikani o'qitish jarayonida o'quvchilarning kasbiy sohalaridan kelib chiqib dars jarayonlarini tashkil etish, bunda ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy tavsiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning imkoniyatlari asoslab berilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot doirasida tahlil etilgan ilmiy adabiyotlarga asoslanib ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy, metodik tavsiyalarning samaradorligini aniqlash uchun o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari ishonchligiga ko'ra kasb-hunar maktablari matematika ta'limida foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi hamda o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Boshlang'ich professional ta'lim muassasalari matematika ta'limida o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantiruvchi metodik tizimini takomillashtirish mavzusidagi ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

kasb-hunar maktablarida matematikani o'qitish jarayonida o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning metodik xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilgan holda kasbiga yo'naltirib o'qitishda fanlararo aloqadorlikka asoslanish va dars jarayonlarini tashkil etishni takomillashtirish bosqichlarini

aniqlashga oid tavsiyalar “Oliy ta’lim muassasalari talabalarining matematik kompetentligini rivojlantirish tamoyillarini tadqiq qilish” nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7567/04 raqamli ma’lumotnomasi). Natijada, kasb-hunar maktablari o’quvchilari egallashi lozim bo’lgan kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga yo’naltirilgan o’quv materiallarini tahlil qilish va takomillashtirish bo’yicha metodik xususiyatlarini aniqlashtirishga erishilgan;

matematika darslarini tashkil etishda o’quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantiruvchi o’quv elementlari (maqsad, mazmun, metod, shakl va vositalar)ning xususiyatlariga mos ravishda takomillashtirilgan, nazariy jihatdan tayyorlangan takliflar “Oliy ta’lim muassasalari talabalarining matematik kompetentligini rivojlantirish tamoyillarini tadqiq qilish” nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7567/04 raqamli ma’lumotnomasi). Natijada, kasb-hunar maktablarida o’quvchilarning matematika ta’limi jarayonida kasbiy kompetensiyalarini shakllantiruvchi usul va vositalarini takomillashtirish samaradorligi oshgan;

matematika darslarida nazariy ma’lumotlarni, qonun va qoidalarni o’rganishda, bilim, ko’nikma va malakalar hosil qilishda asosiy o’rinda turuvchi masalalarning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatiga e’tibor qaratilib, kasbiy mazmunli masalalar va kasbiy kompetensiyaviy masalalar tushunchalari alohida ajratilgan va metodik xususiyatlari ishlab chiqilgan tavsiyalar “Oliy ta’lim muassasalari talabalarining matematik kompetentligini rivojlantirish tamoyillarini tadqiq qilish” nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7567/04 raqamli ma’lumotnomasi). Natijada, kasb-hunar maktablarida matematika ta’limi jarayonida masalalarning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash va metodik xususiyatlarini ishlab chiqish samaradorligi oshgan;

takomillashtirilgan metodik tizimga asoslangan dars jarayonlarini tashkil etish orqali o’quvchilarning matematik va kasbiy kompetensiyalarini shakllanganlik darajalari qiyosiy, tahliliy va ijodiy mezonlar asosida natijalari aniqlashtirishga oid xulosalar “Oliy ta’lim muassasalari talabalarining matematik kompetentligini rivojlantirish tamoyillarini tadqiq qilish” nomli grant doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrda 11-05-7567/04 raqamli ma’lumotnomasi).. Natijada, ishlab chiqilgan metodik tizimning samaradorligini tekshirish uchun tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, o’tkazish hamda o’tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijasining tahlillariga ko’ra o’quv-metodik ta’minotni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o’tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 12 ta ilmiy-uslubiy ishlar chop etilgan, O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya

komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, shundan 2 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarida chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa 129 bet matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniq belgilangan. Shuningdek, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilish darajasi hamda ilmiy natijalarning chop etilganligi haqida ma'lumotlar berilgan. Dissertatsiya ishining tuzilishi ham qisqacha bayon etilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Matematika ta'limida metodik tizimni takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan bo'lib, zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan ta'lim dasturlari va ularning standartlarini ishlab chiqish masalalari tahlil qilingan. Kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetensiya va kasbiy kompetentlik tushunchalarining mohiyati, ularning o'zaro farqlari, ta'lim tizimida kompetensiya tushunchasining bugungi kundagi ahamiyati yoritilgan. Shu bilan birga matematika ta'limida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan metodik tizimning o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan va ilmiy tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Ta'limda kompetensiya, kompetentlik va kasbiy kompetensiya tushunchalarining mohiyati o'rganilganda, ularga turli ta'riflar va yondashuvlarning mavjudligi aniqlandi. Har bir ta'rif va yondashuv ularning turli jihatlari hamda ta'lim tizimidagi ahamiyatini ifodalagan. Ba'zi yondashuvlar kompetensiyani faqat amaliy ko'nikmalarni egallash sifatida ko'rsatsa, boshqalari esa uning nazariy bilimlar va shaxsiy sifatlar bilan uyg'unligini ta'kidlaydi. Xususan, kompetensiyaning o'qituvchilar va o'quvchilarning o'zaro aloqalari, shuningdek, ta'lim jarayonidagi ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog'liqligi ham tahlil etilgan.

M.S.Semidel ta'biricha, kompetensiya kelajakdagi kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan bitiruvchilarning potensial xususiyatlari to'plami bo'lib, mutaxassislarni tayyorlash uchun zarur bo'lgan xususiyat va talablar (bilim, ularni qo'llash, ko'nikmalar, vazifalar va shaxsiy fazilatlar) kombinatsiyasidir.

Kompetensiyalarni rivojlantirish uchun pedagogik maqsadlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular o'qituvchining harakatlari shaklida emas, balki ta'lim oluvchining ma'lum bilimlarni o'zlashtirish jarayonida, uni ijtimoiy tajribada qo'llashi va rivojlantirishi nuqtai nazaridan shakllanadi. Bunday yondashuv, kompetensiyaning nafaqat amaliy ko'nikmalarni, balki shaxsiy va kasbiy qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilganligini ko'rsatadi. Shu tariqa, kompetensiya insonning professional va shaxsiy faoliyatidagi samaradorligini oshirishga xizmat qilishi bilan birga, uning jamiyatdagi roli va ijtimoiy darajasini mustahkamlashga ham ko'maklashishi aniqlandi.

A.V.Xutorskiy fikricha, kompetensiya – bu insonning shaxsiy sifatlari uzviyligi (bilim, malaka, tajriba, faoliyat usullari) bo‘lib, ma’lum bir doiradagi narsalar va jarayonlarga nisbatan shaxsning sifatlari va samarali faoliyat yuritishini ifodalaydi. Kompetentlik esa, inson tomonidan faoliyat turlariga nisbatan shaxsiy munosabatni bildiruvchi va mavjud talablar darajasiga javob beruvchi kompetensiyalar yig‘indisiga ega bo‘lishi sifatida talqin etiladi.

N.A.Muslimov kompetentlik tushunchasini sharhlar ekan, uni nazariy bilimlarni amaliyotda samarali qo‘llay olish, shuningdek, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon etish qobiliyati sifatida ko‘rsatadi. M.Barakayev esa, kompetentlik va kasbiy kompetensiyalarni o‘zaro aloqadorligini ta’riflab, mutaxassisning kompetentlik darajasi uning kasbiy kompetensiyalarining rivojlanish darajasiga bevosita bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi.

Kasbiy kompetensiya tushunchasiga yondashuvlarni ham turlicha e’kanligini ko‘rish mumkin. Jumladan, V.G.Zarubina va L.A.Gromovoy o‘z tadqiqotlarida kasbiy kompetensiyani tor ma’noda o‘z faoliyatida, muloqotida va o‘zini rivojlantirishda bilim, ko‘nikma va malakalarini qo‘llay olish qobiliyati sifatida keltirishgan bo‘lsa, A.G.Sergeev esa, xodimga o‘z kasbiy vazifalarini samarali bajarishga imkon beradigan qobiliyat, ko‘nikma va tajriba sifatida talqin etadi.

O‘quvchilarga fanga oid bilimlar shakllantirilgan ekan, real vaziyatda qo‘llash ko‘nikmalarining mavjud emasligi tufayli olingan bilimlarning kasbiy faoliyatlarida foydalanmaslikka olib keladi. Shu boisdan, ta’lim jarayonida o‘quvchilarning tayanch, fanga oid va kasbiy kompetensiyalarini uyg‘unlashgan holda shakllantirish talab etiladi. Xususan, fanlararo aloqadorlikni samarali qo‘llash o‘quvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim o‘rin egallashi asoslandi.

Fanlararo aloqadorlik o‘quvchilarga matematik bilimlarni boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda taqdim etish, ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda samarali vosita sifatida xizmat qilishi aniqlandi. Bunday yondashuv o‘quvchilarga nafaqat matematika, balki kasbiy va ilmiy sohalarida ham integratsiyalashgan bilim va ko‘nikmalarni egallash imkonini beradi.

O.N.Fedorova matematikani kasbga yo‘naltirib o‘qitishda motiv tushunchasiga alohida e’tibor qaratib, uni 6 turga ajratib ko‘rsatgan hamda ularning ta’lim jarayoniga ta’sir etish doirasini aniqlab, fanlararo aloqalar tarkibini mazmunli, metodik, operatsion va tashkiliy qismlarga bo‘lgan holda keltirgan. G.R.Alimatova esa, asosiy e’tiborni fanlararo aloqadorlikni o‘rnatishga qaratib, matematika fanini kasb-hunar kollejlarda kasbiy fanlar bilan bog‘lash orqali samarali natijaga erishish mumkinligini ta’kidlagan.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, fanlararo aloqadorlikka asoslanish va dars jarayonlarini tashkil etishni takomillashtirishning ikki bosqichi aniqlandi. Birinchidan, tadqiqotlar texnika va gumanitar yo‘nalishlarda amalga oshirilgan bo‘lib, ulardan farqli o‘laroq xizmatlar sohasi tanlab olindi. Ikkinchidan, matematika fanini o‘qitishda fanlararo integratsiya tamoyillariga asoslangan yondashuv qo‘llanilgan, bunday yondashuv asosida ulardan ajralib turuvchi mezonlar, ya’ni, boshqa fanga aloqador ma’lumotlardan foydalanishning turiga ko‘ra tasniflandi. Biz bunday tasniflashni uchta asosiy kategoriyaga ajratamiz:

axborotli – foydalaniladigan ma'lumotlar tushuncha, nazariya, qoida va tahlillardan iborat bo'lib, o'quvchilarga ma'lumotlarni axborot tariqasida taqdim etadi;

predmetli – foydalaniladigan ma'lumotlar fan doirasiga taalluqli turli predmetlardan tuzilgan bo'lib, o'quvchilarning matematikaga doir tushunchalarini shakllantirishda vosita sifatida qo'llaniladi;

vaziyatli – foydalaniladigan ma'lumotlar turli vaziyat va holatlarni ifoda etib, o'quvchilarning nazariy bilimlarni amaliy vaziyatda yuzaga keladigan muammolarga tadbiq etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xizmatlar sohasida ta'lim oluvchi o'quvchilarning matematika ta'limida fazoviy tasavvurini rivojlantirish ijodkorlikka, ehtimollik nazariyasi asosida muammolarni hal etishning samarali bo'lish imkoniyatlarini aniqlay olishga, jismlarning o'lchov va miqdor tushunchalariga doir fikr yuritishda geometrik bilimlarga tayanishga, hosila va integrallarning tatbiqlaridan optimallashtirish masalalarida foydalanish ko'nikmalari tarkib topishiga xizmat qiladi. Ushbu jarayonlar o'quvchilarga matematik bilimlarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo'llay olish imkoniyatlarini yaratib, kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishi aniqlandi.


Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Matematikani o'qitishda o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantiruvchi metodik tizimi”** deb nomlangan bo'lib, bunda, matematikani o'qitishda kasbiy kompetensiyani shakllantirishning metod, shakl, usul va vositalari, shuningdek, kasbiy kompetensiyaviy masalalarning metodik xususiyatlari hamda matematika ta'limi jarayonida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan dars loyihasi keltirilgan.

Boshlang'ich professional ta'lim tizimi uchun amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari nazariy jihatdan o'rganish natijasida kasbiga yo'naltirib o'qitish, fanlararo aloqadorlikni o'rnatish va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan fan mazmuni, metodi, shakl, usul va vositalarini joriy etish zarurati mavjudligi, buning uchun uning metodik tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Matematika ta'limida o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish o'qituvchi tomonidan olib boriladigan tizimli faoliyat natijasida amalga oshiriladi. O'qituvchining butun dars jarayonida olib boradigan faoliyati o'quvchining ma'lum bir belgilangan bilimlar tizimi bilan bir qatorda, tanlagan sohasiga doir kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishiga ham xizmat qilishi zaruriyati belgilandi.

Dars jarayonida o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan to'rt asosiy komponent kiritildi: yangi mavzu bayonini kasbiy soha bilan o'zaro bog'lab tushuntirilishi, mavzuga doir masalalarning kasbiy sohaga aloqadorlikda berilishi, ko'rgazmali qurollar va didaktik materiallarning kasbiy sohaga bog'lanishi hamda mavzuga doir topshiriqlarning kasbiy sohaga yo'naltirilgan holda berilishi. Ushbu komponentlar asosida matematika ta'limi va kasbiy soha o'rtasidagi o'zaro integratsiya jarayonini amalga oshiruvchi sxema ishlab chiqildi (1-rasm).

Yangi mavzu bayonini kasbiy soha bilan o'zaro bog'lab tushuntirish – bu mavzuning xususiyati, amaliy ahamiyati va kasbiy sohaga integratsiyalash imkoniyatidan kelib chiqib, yangi mavzuni tushuntirish jarayonida o'quvchilarning



**1-rasm. O'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdagi amalga oshirish usullarining fanlararo aloqadorlik bilan uzviy bog'liqligi**

kasbiy sohalariga yo'naltirilgan holda tashkil etiladi. Bunda o'qituvchi mavzuni o'rgatishda kasbiy muammoli savollarni taqdim etishi, kasbiy muammoli vaziyatlarni misol sifatida keltirishi va bu orqali matematika bilan kasbiy soha o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlagan holda dars jarayonini amalga oshirilishi keltirildi.

Mavzuga doir masalalarning kasbiy sohaga aloqadorlikda berilishi, ya'ni ularning kasbiy sohalar bilan uzviy bog'lanish muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Yangi o'rganilayotgan mavzu misollar orqali mustahkamlanadi, ammo bir xil turdagi o'xshash misollarni ishlash to'laqonli natijaga erishib bo'lmazligi kuzatildi. Kasbiy sohaga aloqador tarzda tuzilgan masalalarni yechish natijasida matematik bilimlarni amaliyotda qo'llash hamda ularni kasbiy faoliyatga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi ko'rsatildi.

Ko'rgazmali qurollar va didaktik materiallarning kasbiy sohaga bog'lanishida ko'rgazmali qurollardan foydalanishda kasbiy sohalarini inobatga olib, ularning kasbiy imkoniyatlari, kasbiy uskunalari va shu kabi turli elementlari orasida matematika va kasb o'rtasida o'zaro aloqalarni o'rnatish, didaktik materiallar tayyorlashda esa, o'quvchilarning kasbiy sohalaridan kelib chiqib tayyorlash hamda ma'lum bir kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilishi belgilandi.

Mavzuga doir topshiriqlarning kasbiy sohaga yo'naltirilgan holda berilishida ma'lum bir kasbiy soha imkoniyatlari va talablaridan kelib chiqib, matematika faniga oid mavzularni o'rganish, o'zlashtirish va amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini hosil qilishni hamda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlar tizimidan dars jarayonida foydalanish muhim ahamiyat kasb etishi asoslandi.

Bunday topshiriqlar tizimini ishlab chiqishda matematik ahamiyatga ega bo'lishi, tatbiqiy jihatlariga yo'naltirilishi, matematika va kasb aloqadorligini o'rnatishga

asoslanishi bilan birga o'quvchilarning evristik faoliyatini tashkil etishiga e'tibor qaratildi.

Matematikani o'qitish jarayonini pedagogik nuqtai nazardan qaraganda ma'lum bir o'quv elementlaridan tuzilgan va o'quv elementlarini kasbiy kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan holda tashkil etish muhim hisoblanadi. Ular ta'lim maqsadlari, mazmuni, metodi, vositasi va shakllaridan iboratdir. Umuman keltirilgan har bir elementning xususiyatidan kelib chiqib, o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarni shakllantiruvchi metodik tizimi takomillashtirilgan.

To'liq umumiy tizimni kengaytirilgan model orqali asoslangan. Boshlang'ich professional ta'lim muassasalari matematika ta'limida o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantiruvchi metodik tizimini takomillashtirishni 5 ta: maqsadli, nazariy, mazmunli, texnologik va baholovchi-samarali bloklarga ajratdik.

Bunda birinchi blok ijtimoiy buyurtma va uzluksiz professional ta'lim standartlaridan kelib chiqib umumiy maqsadni o'zida qamrab oladi.

Ikkinchi blok matematika ta'limida o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish uchun xizmat qiluvchi ta'lim tamoyillari va ta'limiy yondashuvlarni o'z ichiga oluvchi nazariy blok. Nazariy jihatdan matematika ta'limida olib boriluvchi asosiy tamoyillar va yondashuvlarga e'tibor berish lozimligini bildiradi.

Uchinchi blokda matematika darslarini tashkil etishda o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga amalga oshiriladigan metodologik usullarni keltirdik.


To'rtinchi blokda dars jarayonlarining o'quv elementi bo'lgan ta'limning metod, shakl va vositalarini aks ettiradi.

Beshinchisi ikkita darajadan iborat bo'lgan baholovchi-samarali blokdir. Ular matematika ta'limida o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllanganlik va tayyorlik darajalari sifatida qabul qilindi. Matematika ta'limida o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllanganligi qiyosiy, tahliliy va ijodiy darajalari aniqlandi. Maqsadli blokning natijasi sifatida kasbiy kompetensiyalarni ham tayyorlik darajalarining bir elementi sifatida qabul qilindi.

Taklif etilayotgan model boshlang'ich professional ta'lim muassasalarining matematika ta'limida o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish uchun zarur bo'lgan barcha elementlarni o'zida mujassamlashtiradi va uning natijasida kasbiy kompetensiyalari shakllangan o'quvchilarni tayyorlashga xizmat qiladi (2-rasm).

Matematika ta'limida bilimlarni o'zlashtirish, ko'nikma hosil qilish va malakalarini shakllantirishda masalalarning o'rni ahamiyatlidir. O'quvchilarga matematik nazariyani o'rgatishda turli misollar orqali tushuntirish ularning bilimlarni o'zlashtirishida ko'mak beradi. Shu boisdan, kasbga yo'naltirib o'qitish jarayonida ham masala mohiyati o'quvchilarning aynan kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda asosiy o'rin tutishi aniqlandi.

Masalalar turlaridan kelib chiqib, bir nechta turlari o'zaro qiyoslanishi natijasida ular orasida o'xshash va farqli jihatlari ajratildi. Unga ko'ra, matematik kompetensiyalarni shakllantirishda kompetensiyaviy masalalardan, kasbga yo'naltirish ishlarini olib borishda kasbiy mazmunli masalalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etishi belgilandi.



**2-rasm. O'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantiruvchi metodik tizimning takomillashtirilgan modeli**

Kompetensiyaviy masalalar tushunchasi kengroq bo‘lib, bunda mavjud amaliy kompetensiyaviy masalalar kasbiy mazmunli masalalar tushunchasiga yaqin bo‘lib qolmoqda. Amaliy kompetensiyaviy masalalar, umumiy holatda, amaliy xarakterga ega bo‘lgan masalalar tizimini o‘z ichiga olsa, kasbiy mazmunli masalalar esa bevosita muayyan kasb sohasi bilan bog‘liq masalalarni qamrab oladi. Bunday masalalarni yechishda albatta, kasbiy tushuncha yoki ma‘lumotlardan foydalaniladi. Ushbu ikki turdagi masalalarning o‘zaro integratsiyasi orqali kasbiy kompetensiyaviy masalalar tushunchasi kiritildi.

Kasbiy kompetensiyaviy masalalar bu – mazmunida kasbiy muammoli vaziyatlarni o‘zida aks ettirib, matematik usullar bilan hal etiladigan hamda o‘quvchilarning ma‘lum bir kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi masalalardir.


Kasbiy kompetensiyaviy masalalar, o‘z navbatida, ma‘lum bir talablari belgilandiki, bu orqali tuzilgan masalalar o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilishga qaratildi. Bunday masalalar shartida kasbiy tushuncha yoki kasbiy muammoli vaziyat berilishi, o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lgan atamalar tizimidan foydalanilgan bo‘lishi, uni yechish jarayonida o‘quvchilarning o‘rgangan bilimlar tizimi asosida hal eta olishlari inobatga olinib, kasbiy o‘zaro aloqadorlikdan foydalanishga qaratilishi natijasida ma‘lum bir kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni ifoda etadi.

Kasbiy kompetensiyaviy masalalarni yechish jarayonida o‘quvchilar matematika va kasbiy faoliyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rnatadi. Shu boisdan, kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni matematik usullar asosida tahlil qilish va samarali hal etish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi metodik tuzilma takomillashtirildi (3-rasm).

Matematika ta‘limida o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllanganligini aniqlash yuqorida bayon etilgan metodik tizimning asosiy natijalarini baholash imkonini berdi. Bunga ko‘ra, o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini matematika ta‘limida shakllanganlikning qiyosiy, tahliliy va ijodiy darajalari aniqlandi. Bu esa, o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini aniq mezon asosida o‘lchash imkoniyatini yaratdi.

Matematika o‘qitishda tushuntirish, aqliy-hujum, individual ish, toifalash, klaster metodlarini qo‘llab, kasbiga yo‘naltirib o‘qitishga asoslangan dars loyihasi va didaktik materiallar ishlab chiqildi. Jumladan, ko‘rgazmali didaktik vositalardan foydalanish va kasbiy sohaga yo‘naltirilgan topshiriqlar berish o‘quvchilarning ta‘lim yo‘nalishidan kelib chiqib malaka talabidan belgilangan kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Matematika ta‘limida o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan metodik tizimning samaradorlik darajasi”** deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda matematika darslarida o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va o‘tkazish metodikasi aniqlangan.



**3-rasm. Kasbiy kompetensiyaviy masalani matematik modellashtirish jarayoni**

Boshlang'ich professional ta'lim muassasalari matematika ta'limida o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan hamda takomillashtirilgan metodik tizimni samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari 2020-2023 o'quv yillari davomida Sergeli tuman kasb-hunar maktabi, Jizzax shahar kasb-hunar maktabi va Namangan shahar 2-son kasb-hunar maktablarida o'tkazildi.

